

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**TALABALARNING KOMMUNKATIV KOMPETENSIYASINI PRAGMATIK
TAHLIL VOSITASIDA O'STIRISH BOSQICHLARI**

Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: +998333294943

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarning kommunikativ kompetensiyasini pragmatik tahlil vositasida o'stirish bosqichlari, chet tilini o'rgatishda bilimlarni shakllantirish, ta'limiy jarayonda tilni o'qitish maqsadida nutq mavzusiga asoslangan holda til materiallarga tegishli bo'lgan mashqlardan foydalanish masalalari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar. *Kommunikativ kompetensiya, pragmatik tahlil, til vositasi, o'qitish mazmuni, eshitish, o'qish, yozish, gapirish, til materiallari.*

**ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПРАГМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА**

Махмудова Нигорахон Бойкози кызы

Базовый докторант Наманганского государственного университета

Тел.: +998333294943

Аннотация. *В данной статье представлены размышления об этапах развития коммуникативной компетентности студентов посредством прагматического анализа, формирования знаний в процессе обучения иностранному языку и использования упражнений на языковых материалах по теме «речь» в учебном процессе.*

Ключевые слова. *Коммуникативная компетентность, прагматический анализ, языковое средство, содержание обучения, аудирование, чтение, письмо, говорение, языковые материалы.*

**STAGES OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE
COMPETENCE THROUGH PRAGMATIC ANALYSIS**

Makhmudova Nigorakhon Boykozi kizi

PhD student at Namangan State University

Phone: +998333294943

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Annotation. *This article presents some thoughts on the stages of developing students' communicative competence through pragmatic analysis, the formation of knowledge in teaching a foreign language, and the use of exercises related to language materials based on the topic of speech for language teaching in the educational process.*

Keywords. *Communicative competence, pragmatic analysis, language tool, teaching content, listening, reading, writing, speaking, language materials.*

Bilamizki, ta'limda tilni o'qitishdan maqsad – talabalarga til vositasida muloqot qilish, fikr bildirish, anglash, tushunish va ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'qitish mazmuni muayyan o'quv yurti oldida turgan maqsad va vazifalarga mos kelishi, shuningdek, o'quv jarayonida o'rganiladigan tilni egallash sifati va darajasi uchun zarur o'quv materiallarining mavjud bo'lishi muhim sanaladi.[1;5]

Ta'lim jarayonida o'qitish mazmuni ikki asosiy yo'nalishda — “*nimani o'rgatish*” va “*nima qilishni o'rgatish*” tamoyiliga asoslanadi. “*Nimani o'rgatish*” deganda o'quv mavzulari, til materiali va asosiy nutq malakalari tushuniladi. “*Nima qilishni o'rgatish*” esa eshitish, o'qish, yozish va gapirish kabi nutq faoliyati turlarida mavzuga oid mashq va topshiriqlarni qanday bajarishni o'rgatishga qaratiladi.

Talaba tomonidan idrok etilgan bilim har doim ongli yoki ongsiz ravishda o'zlashtiradi. Chet tilini o'rgatishda bilimlarni shakllantirishning maqsadli jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa vaqt va mehnatni talab etadi. Kommunikativ kompetentsiyaning bilim komponentini shakllantirish uchun mavzular xilma-xilligiga ham ahamiyat berib boriladi. O'qitish mazmunida *o'qitish mavzulari* haqida so'z ketganda, ular o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda tanlanilishi maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Biroq, nutq mavzularini saralash bir nechta mezonlarga rioya qilingan holda amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu borada taniqli o'zbek pedagoglaridan biri bo'lmish S.A.Misirov o'zining “Kasb-hunar kollejlarda ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari” deb nomlangan dissertatsiya ishida nutqiy mavzularni tanlashga doir quyidagi mezonlarni keltirib o'tadi: a) *mavzular nutq malakalarini shakllantirish uchun xizmat qilishi lozim*; b) *o'qitish sharoiti va imkoniyatlarining mavjudligi ko'zda tutiladi*; c) *mavzularni tanlashda o'zlashtirishning restseptiv va (re)produktiv xususiyatlari*. [2;44] Umuman olganda, o'qitish mazmuni turli o'quv yurtlarida o'xshash, biroq ular sifat va miqdor jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'quv dasturida tavsiya etilgan nutq mavzulari albatta, talabalarining yosh xususiyati, qiziqishi va ularning umumiy saviyasini ko'tarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bilimlarni taqdim etish uchun guruh bilim darajasidan kelib chiqib, taqdim etilgan obyektlar ixchamlashtiriladi. Yangi bilimlar ilgari olingan bilimlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar chet tilini maxsus tashkil etilgan sharoitda o'zlashtirsa, o'rganayotgan tili haqidagi bilimlarni egallashi oson kechadi. Buning uchun esa albatta, talabalarga beriladigan til materiallariga ham alogida ahamiyat

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

berish herak bo'ladi. Til materiallari ham nutq mavzulari kabi qo'llanilish jarayonida uch metodik tushunchaga ahamiyat berilgan holda amalda qo'llanilishi kerak bo'ladi. Bular: *chet til o'qitish mazmuni, uning tarkibidagi til materialli va undan ajratib olinadigan til materialini o'qitish mazmuni*. Ta'limiy jarayonda tilni o'qitish maqsadida nutq mavzusiga asoslangan holda til materiallarga tegishli bo'lgan mashqlardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanishtirishga yordam beradi.

Bilamizki, nutq faoliyatning ijro, amalga oshirish bosqichi gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv shaklida namoyon bo'ladi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nutq faoliyat turlarida til materialini o'rganish va o'rgatish orqali amalga oshiriladi.[3;52] Shuningdek, chet tilda nutq faoliyatining gapirish, yozuv (reproduktiv) va tinglab tushunish va o'qish (restpektiv) turlarini egallash bir-biridan keskin farq qiladi. Nutq faoliyati turlarining vazifasini to'g'ri tushunish uchun, eng avvalo, "bilim", "ko'nikma" va "malaka" kabi asosiy tushunchalarning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Chunki bu tushunchalarning har biri til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qilgan yoki tinglangan matnni gapirib berish (yakkanutq) asosiy usullardan biri bo'lib kelgan. Bunda talabalardan 5-7 minut davom etadigan mavzuda qisqa va sodda axborot berish talab etiladi. Bu jarayon mavzuga oid berilgan muayyan matnlarni o'qish yoki tinglash orqali amalga oshiriladi. Mavzuga oid qisqa va sodda axborot berishda talabalarning nutq malakasini o'stirish o'z nutqiga isbot, bahs elementlarini kiritishni, shuningdek, mulohaza hajmini yanada kengaytirish nazarda tutiladi. Belgilangan mavzu doirasida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan erkin gapirish asosiy maqsad qilib olinadi. Og'zaki nutq (gapirish)da talaba o'z fikrini asoslash, mustaqil ma'ruza qilish, tinglangan, o'qilgan matn mazmunini sharhlay olish, asosiy fikrlarni ilg'ay olish, ularga o'z bahosini berish, umumlashtirish kabi malakalarni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даянаева Т. З. Межпредметные связи как фактор повышения эффективности подготовки будущих учителей и воспитателей (на материале педагогических училищ Узбекистана): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Т., 1990. – 5 с
2. Мисиров С.А. Касб-хунар колледжларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари : дис. канд. филол. наук / С.А. Мисиров. – Тошкент, 2007. – 44 с.
3. Умумий ўрта таълим мактаблари учун инглиз тили ўқув дастури. Тузувчилар: Ж.Ж.Жалолов, М.Т.Ирискулов. – Халқ таълими. – №4 – Тошкент, 2013. 52 - б.